

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ADABIY TANQID TALQINIGA DOIR

*Aliboy Qahramonov Yolgoshevich,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya: *Yozuvchi yoki shoirlarning adabiy- nazariy, tanqidiy qarashlari badiiy asarlarni tahlil qilib, tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bunday qarashlar ijodkorning badiiy-estetik olamini ochib beradi, shuningdek, adabiyotshunosligimiz adabiy – nazariy fikrlarga boyib boradi, adabiyot havaskorlari ularni o‘rganib bilimlarini oshirishadi. Ushbu maqolada professor Q.Qahramonovning adabiy tanqid yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlari va qarashlari haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiy tanqid, tahlil, talqin, yondapshuv, adabiyot, asar, izlanish, tadqiqot, monografiya, adabiyotshunoslik, metod.*

Qurdosh Qahramonovning monografik izlanishlari mustaqilligimiz bilan tengdosh bo‘lib, 1991-yilda uning “Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti” nomli ilk monografiyasi ilmiy-adabiy jamoatchilik va keng kitobxonlar qo‘liga tegdi. Unda o‘tgan asrning 30-80-yillari adabiy tanqididagi bolalar adabiyoti spetsifikasiga oid kuzatishlar tahlilga tortildi. Olimning diqqati badiiy ijodda inson omiliga e‘tiborni kuchaytirish, poetik asarni turli rakurslardan turib g‘oyaviy-badiiy va estetik jihatdan obyektiv tahlil etish, yetuk ideallar asosida baholash orqali tanqidning adabiy jarayonga faol ta‘sir etishini ta‘minlashga qaratildi. U fanning muhim vazifalari sifatida: so‘z san‘atkorlari g‘oyaviy fikr doirasini kengaytirish va haqqoniylik bobidagi mahoratini takomillashtirishga ko‘maklashish, poetik yaratishlarni yaxlit adabiy jarayon kontekstida kuzatish, hayot haqiqati hamda badiiy adabiyot, ijodkor va kitobxon munosabatlarini uyg‘unlashtirish, ayrim nuqsonlarni bartaraf qilish uchun kurashishdek realizm tamoyillariga xos estetik talablarni qo‘ydi. Shuning uchun ham o‘smirlar adabiyoti kichkintoylar dunyoqarashini aniq va ravshan badiiy tasvirlash orqali yosh avlodni umuminsoniylik jihatidan har tomonlama mukammal, ma‘naviy sog‘lom, ruhan bardam qilib tarbiyalashning ta‘sirchan quroli deb bildi.

Monografiyada bolalar adabiyoti tanqidchiligi shakllanish davri sifatida 30-50-yillar belgilansa, uning yangilanish davri 50-yillarning ikkinchi yarmidan keyingi “nisbiy erkinlik” davridan boshlanib, rivoji 70-80-yillarga kelib tutashadi. Ijobiy qahramon masalasiga munosabat bildirish asnosida munaqqid alohida odamning betakror individ ekaniga diqqat qaratdi. Hayotiylikni ta‘minlashda qahramonni o‘z “mikromuhiti”dan ajratmay tasvirlash, ruhiyatida kechgan psixologik konflikt va kolliziyaga diqqat qaratishni yoqladi. Har bir konkret asarga uning janr tabiati, poetik matni, obraz nechog‘lik to‘laqonli ekani, ifoda usuli, ijodkor pozitsiyasi, mahoratidan kelib chiqib individual munosabat bildirish lozimligini ta‘kidladi. Shu kontsepsiyasi

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

asosida 1976-1984-yillarda “ijobiy qahramon” muammosi atrofida uyushtirilgan bahs-munozaralarga faol munosabat bildirdi.

Ma’lumki, o‘tgan asr 80-yillari intihosiga kelib, adabiy tanqid nima, badiiy asarga qaysi usulda yondashmoq maqsadga muvofiq, qanday asar chin ma’noda asl adabiyot namunasi bo‘la oladi, tanqiddan past asarlarga qanday munosabatda bo‘lmoq lozim kabi qator savollar o‘rtaga tushdiki, bu davrdan boshlab shakllana boshlagan o‘ziga xos adabiy materiallar endilikda shu kabi haqli jumboqlarga javob topish masalasini ko‘ndalang qo‘ydi. Natijada badiiy asarni tahlil etish yo‘llarini izlash, ilmiy izlanishlar yo‘sini, adabiy tanqid metodologiyasini belgilash o‘ta dolzarb muammoga aylandi. Negaki, bu davr adabiyoti tom ma’noda sintezlashgan adabiyot bo‘lib, na an’anaviy mumtoz poetika, na jadidlar barpo etgan sotsiologik talqin, na sho‘ro tanqidchiligida uzoq yillar gegemonlik qilgan markscha metodologiya qoliplariga tushar edi. Bu adabiyot mavjud metodologik tamoyillarning barchasini umumlashtirish, shu asosda o‘ziga xos yangi tadqiqot usullarini kashf etishni talab etardi. Garchi, bu jarayon qariyb o‘ttiz yillardan beri davom etib kelayotgan bo‘lsa-da, uning ilmiy-nazariy jihatdan yaxlit, sistemalashgan bir shakli hanuzgacha dunyoga kelgani yo‘q. Jarayon davom etyapti.

Ana shu jarayonni xolis kuzatish, qonuniyatlarini ilg‘ash va qayd etish, umumlashtirish, shu asosda o‘zbek adabiy tanqidchiligining kelajagi xususida fikr aytish zarurati bor edi. Filologiya fanlari doktori, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori Qurdosh Qahramonovning “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari” (T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009), deb nomlangan monografiyasi ayni zarurat tufayli maydonga kelgan asarlardan biridir. Albatta, Q.Qahramonovga qadar ham o‘zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishi, o‘ziga xosligi, rivojlanish tamoyillari, vakillari tadqiqiga qaratilgan dissertatsiyalar, monografiya va risolalar chop etilgan. Ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, Q.Qahramonov monografiyasi o‘zigacha yozilgan tadqiqotlardan qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Oldingi tadqiqotlardan farqli o‘laroq, “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari” kitobida adabiy tanqidchiligimizning bir qadar turg‘un davrlariga o‘xshamagan, rang-barang, chigal va murakkab pallas o‘rganilgan. Oldingi ishlarda aniq va majburiy metodologiya asosida bunyod etilgan adabiyotni adabiy tanqidchilik yanada mustahkamroq qolipga solib talqin etilgan bo‘lsa, Q.Qahramonov izlanishlarida o‘rganilgan davr adabiyoti, tanqidchiligi faoliyatida ayni qoliplarning sinishi, yo‘lsizlik, izlanish, ma’lum ma’noda asl adabiyotni kashf etish jarayonlari xususida fikr yuritilgan. Shunga ko‘ra, monografiyada o‘zbek adabiy tanqidchiligining keyingi davrlariga doir bir necha muhim masalalar talqin etilgan.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahramonov Q. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
2. Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Axmedova Sh. O‘zbek adabiy
3. tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
4. Jo‘raqulov U. Jarayon maromi. – Toshkent: “Yoshlik”, 2011-yil, 3-son.